

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA FOLKLOR JANRLARINING
IFODALANISHI

Arobova Shohsanam Akram qizi

Buhoro Xalqaro Osiyo Universiteti

"*Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lif)*"

1-kurs magistranti.

Annostatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada: Boshlang'ich sinf (1-4-sinf) darsliklari ya'ni o'qish hamda hozirgi yangi darslik ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *maktab, bolalar, xalq, xalq og'zaki ijodi, xalq og'zaki ijodini takomillashtirish. O'qish kitobi, maqol, topishmoq, ertak, ona tili va o'qish savodxonligi, alla, qo'shiq, boshlang'ich sinf, berilgan, bor, darslik.*

XX asrning 60-yillarida yaratilgan maktab dasturida kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarda shakllantiriladigan matn ustida ishlash ko'nikmalari belgilab berildi, shuningdek, 1—4-sinflarda o'qish malakasiga qo'yilgan talablar ancha aniq ajratildi. XX asming 70-yillari boshlarida mazmuni va metodik apparati jihatidan hayotgayaqinlashtirilgan o'qish kitoblari yaratildi. Mustaqillik tufayli ta 'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. 1999-yil boshlang'ich ta 'limning ham „Davlat ta 'lim standard" yaratildi, o'quv dasturlari yangilandi. 2005-yil tajriba-sinov natijalari hisobga olinib, davlat ta 'lim standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi, „O'qish kitobi" darsliklari ham yangilandi. O 'zbek m aktablarida taniqli rus m etodist-olim lari T. G. Ramzayeva, M. S. Vasileva, V. G. Goreskiy, K. T. Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I. Omorokova, E. A. N ikitina, N. S. Rojdestvenskiy, o'zbek olimlaridan A. Zunnunov, K. Qosimova, Q. Abdullayeva, S.M atchonov, M .Yusupov, M.Umarova, X. G 'ulomova kabilar ishlab chiqqan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanimoqda.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o 'zining yuksak orzu-um idlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o 'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovutmachoqlar to 'qiydilar. Bulaning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Bolalar uchun chop etiladigan har qanday darslik, yoziladigan badiiy asar ulaming yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o 'y-fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak

g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhim mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak. Bolalar adabiyoti yoshlami imon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida taibiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asaming tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ;fodali olib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxoniga tez va oson yetkazadi. Alisher Navoiy «Mahbubul qulub»da tilni «ko'ngil xazinasining qulfi», deb ta'riflaydi. Buyuk shoir kishilami qisqa va mazmunli, chuqur m antiq bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlarkitobxonning nutqiga ham katta ta'sir k o 'rsatadi, so'z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga m uhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ulami yurtimizning m unosib farzandlari bolishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. flm-fanga muhabba'ini oshiradi. Kitob xalqimizning o 'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixon tuyg'ularini o 'stiradi. Bugungi kunda qudratli qurol bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas.

Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik -psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Xalq qadim zamonlardan farzandlarning ma`naviy va jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaragan. Agar allalar, ertaklar uning ma`naviy dunyosini boyitsa, turli o`yinlar: quvlashmachoq, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish kabilalar jismonan chiniqtirgan. Yosh bolalar alohida e'tiborga loyiq xalqlarda esa ular uchun maxsus badiiy so'z namunalari yaratilgan. O'zbeklar ana shunday xalqlar qatoridan munosib o'rin oladilar. Tez aytishlardan tortib allalargacha, topishmoqlardan tortib sanamachoq -largacha bevosita yosh avlod tarbiyasiga bagishlangan bolalarfolklori janrlarini, namunalarini tashkil etadi. O'zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldinoq hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar. Aslida xalq bu talablarni o'zicha hisobga olgan. Pedagogika fani esa ularni keyinchalik kashf qilgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qoladigan bo'lishi lozim. Shuningdek, bu asarlar albatta tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlariga, ajdodlariga hurmat ruhini

shakllantirishi kerak. Bunday namunalar farzandlarimizning ma`rifiy ozuqasi hisoblanadi. Bo`rining yirtqichligini, tulkining ayyorligini ular dastlab o`zlariga atalgan ertaklardan bilib oladilar. Ayni paytda, bunday asarlar bolada go`zallikka intilish tuyg`usini uyg`otishga ham mo`ljallangan bo`ladi. Masalan, oy — o`n to`rt kunlik yoki hiloldek; qiz—go`zal, chiroqli, o`n to`rt kunlik oydek; yigit-mard, jasur, pahlavon, hunarli kabi o`xshatish va sifatlashlar bilan yonma-yon tasvirlanadi. Natijada, bolalar folklori bilan aloqada bo`lgan yosh farzand ularni tinglash yoki o`qish barobarida o`zbekning o`zbekona tarbiyasi bilan tanishib boradi va o`zbek bo`lib voyaga yetishadi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi.

Boshlang'ich sinf O'qish kitobi 1-sinf darsligida (T. G'afforova, E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva Toshkent-2017) xalq og'zaki ijodi na'munalaridan quyidagilar o'rinn olgan: maqol 32 ta, maqollar asosan mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, vaqt qadri, do'stlik, ezgulik va yaxshilik qilish haqida boradi. Topishmoq 40 ta berilgan. Topishmoqlar osmon jismlari, narsa buyumlar, hayvonlar, hashoratlar, poliz ekinlari, mevalar va hokazo haqida so'z boradi. Ertak 5 ta: "Sher va sichqon", "Rostgo'y bola", "Aqli bog'bon", "Buloq va daraxt", "Hakka va uning bolalari". Masal 2 ta : Ezop masali "Shamol va quyosh" va "Maymun va duradgor". Latifalar 2 ta ya'ni "uyqum qochib ketdi" va "Tuya eshikdan sig'maydi". Xalq qo'shiqlardan 2 ta "Navro'z keldi", "Laylak" qo'shiqlari bor. "Ona allasi" degan rivoyat bor, shu rivoyatda 4 misra "Alla" xalq qo'shig'i mavjud.

Boshlang'ich sinf O'qish kitobi 2-sinf darsligi (T. G'afforova, SH. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova) 2018-yil 4 nashr chiqqan sonida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan quyidagilar o'rinn olgan: 60 ta maqol, 47 ta topishmoq, 10 ta ertak, 1 ta masal mavjud. Maqol va topishmoq nima ekanligi haqida ta'riflar berilgan:

Maqol nima? Maqollar xalq og'zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko'rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo'lib, pand-nasihat mazmunini ifodalaydi.1.

Topishmoq nima? Topishmoq – xalq og'zaki ijodining o'zin turlaridan biri. Topishmoqda topilishi kerak bo'lgan narsa, hodisalar o'xshatmalar orqali beriladi. Siz shu o'xshatmalardan uning nima ekanligini oson topasiz.

Ertak nima? Ertaklar xalq tomonidan yaratilib, ular og'izdan og'izga ko'chib yuradi. U ba'zan to'qib aytiladi, ba'zan uydirmalarga asoslanadi. Ba'zida sehrli sarguzashtlar bo'lishi mumkin. Ular kundalik turmush mazmuniga ham ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qish kitobi 3-sinf darslik (M.Umarova, X.Xamraqulova, R.Tojiboyeva Toshkent-2019). Xalq og'zaki ijodi na'munalari ajaratilgan alohida bob bor. Ushbu bobda xalq og'zaki ijodi milliy o'zin qo'shiqlari o'rinn olgan, ya'ni "Sanama", "Chillak", "Chittigul", "Arra marra". Maqollar, topishmoqlar, ertaklar shular jumlasidandir. Maqollarni darslikda berilganini jamlaganimizda 25 ta bo'lib, asosan ularning mazmuni vatan, do'stlik, kitob, ilm-fan, odob-axloq, ota-onva farzand haqida. Topishmoqlar 13 ta ularning ma'nosida dov-daraxtlar, suv, kitoblar, poliz ekinlari,

mevalar, qushlar va boshqa predmetlar yashiringan. Masal 2ta "Bolari bilan Pashsha" (Abdulla Avloniy), "Lol bo'lgan tulki". . Ertaklar quyidagilar: "Opa-singil daryolar" (Go'zal Begim), "Vaqting ketdi-naqding ketdi" (Kavsar Turdiyeva), "Donishmand quyon va kichkintoy jirafa" (Faxriddin Hayit), " 10 tillo mukofot haqida ertak" (Anvar Obidjon), "Qish ertagi" (Aziza Ahmedova), "Qorparcha" (Oydiniso), "Soy suvi haqida ertak" (Zohir A'lam), "Pinokkioning sarguzashtlari" (Karlo Kollodi), "Ilonchaning tug'ilgan kuni" (Shukrullo Abdullayev). Bundan tashqari xalq ertaklari ham mavjud bo'lib, bular quyidagilar iborat: "Dog'da qolgan qarg'a" (Laos xalq ertagi), "Anbe va Ranbe" (Hind xalq ertagi), "Ahillik ulug' baxt" (Qirg'iz xalq ertagi), "Donishmand yigit" (O'zbek xalq ertagi), "Halollik" (O'zbek xalq ertagi), "Alpomishning bolaligi". Ertaklar umumiyl soni 15 ta bo'lib, bundan 6 tasi xalq ertaklaridir. Xalq ertaklaridan 3 tasi boshqa millatga mansub ya'ni Qirg'iz, Hind, Laos xalq ertaklaridir.

O'qish kitobi (S. Matchinov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov Toshkent- 2020) 4-sinf darsligida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan Maql 14 ta, Topishmoq 3 ta, xalq qo'shiqlaridan 2 ta "Boychechak", "Xo'p hayda". Ertak 3 ta "Davlat", "Ziyrak uch yigit" Aziz Abdurazzoqni "Danak ichidagi daraxt" ertagi berilgan.

2022 — 2026-yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida qarorda "Xalq ta'limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o'quv dasturi yaratilganligi va 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar joriy qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin."1 O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Boshlang'ich sinf (1-4-sinf) O 'qish darsliklariga hikoya, she'r, rivoyat, ilmiy-ommabop asarlar, hikmat so'zlar, hikoyalar, rivoyatlar, xalq og'zaki ijodi na'munalaridan esa xalq qo'shiqlar masal, ertak, tez aytish, maql, doston, va topishmoq, latifalar kabi janrlari kiritilardi. Ona tili alohida fan, o'qish alohida fan sifatida o'tilardi. 2021-yildan boshlab 1-2-sinf darsligi ona tili va o'qish darsligi birlashtirilib 1ta fanga aylandi. Ya'ni Ona tili va o'qish savodxonligi deb nomlangan darslik joriy etildi. Ushbu darslik 2021-yil sentaybr o'quv yilidan boshlab, boshlang'ich sinf 1-2-sinflarda o'tila boshlandi. Demak boshlang'ich sinf (1-4-sinf) o'qish darsliklarda va hozirgi yangi darslik ona tili va o'qish savodxonligi xalq og'zaki ijodi na'munalaridan qanday qo'llanilganligini ko'rib chiqamiz.

Hozir yangi avlod boshlang'ich sinf darsliklarida ya'ni "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida Matnlar, ertaklar, qiziqarli ma'lumotlar, hikoyalar va hokazolar audio tarzida berilmoqda, qoidalar deyarli uchramaydi. Bundan tashqari rasm va suratlarga ko'proq urg'u berilgan, bolalar rasmlarni ko'radilar va audio matndagi: ertakni, qo'shiqni, hikoyani va boshqa ilmiy ma'lumotlarni tinglaydilar, bir-birlari bilan savol-javob qilib tahlil qiladilar hamda fikrlash doirasi kengayadi.

1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism darsligida (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent- 2021). O'zbek milliy urfatlarimizdan Maftuna Aliyevaning "Arafa" matni hamda "Sumalak" rasmlari

berilgan. Xalq milliy o'yinlaridan 2ta: Oq terakmi- Ko'k terak hamda Lanka yoritilib ketilgan. Bilamizki hozirgi yangi avlod darsliklarida ertaklar asosan audio tarzida berilmoxda, Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta 'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligidagi real hayot tasviri sarguzasht elem entlar bilan qo'shilib ketadi. Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqeа rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalami maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'naliishi, unda ezgulik kuchining — yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. demak Boshlang'ich 1-sinf "ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining 1-qismida 1ta "Bo'ri va echki bolalar" audio ertagi, 6 ta topishmoq hamda 4 ta maqol berilgan.

Maqollar quyidagilar:

- 1.Yoz mevasi-qish xazinasi.
2. G'oz kelgani-yoz kelgani.
- 3.Yomg'ir-ekinning joni.
- 4.Toza havo-ming dardga davo.

1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent- 2021) 2-qismida esa "Ertakdagi qahramon" degan bob bor. Ushbu kitobda bolalarga Ertak haqida qisqacha nazariy ma'lumot beriladi: " Ertak- xalq to'qigan badiiy asar. Hali kitob yo'q vaqtida odamlar bir-birilariga ertaklar aytib berishgan. Bir kishi birovdan eshitgan ertagini boshqa kishiga so'zlab bergen. Shu yo'l bilan ertaklari avloddan avlodga o'tgan. Har bir xalqning o'z milliy ertaklari bor "Zumrad va Qimmat", "To'g'rivoy va Egrivoy", "Uch og'ayni botirlar" o'zbek xalq ertaklaridir. Ertakdagi qahramoni- ertakdagi voqeaneing asosiy qatnashchisi". Shunisi qiziqarli chiqqanki " Zumrad va Qimmat", "Egrivoy va To'g'rivoy", "Uch og'ayni botirlar" multfilmdagi qahramon rasmlaridan olingan. Bolalar qo'shiqlaridan "Sanamalar" bo'limi bor. Unda 2ta "Oylar kelar ketma-ket" (Dilnavoz Najimova) va "Raqamlar bo'ylab sayohat" (Kavsar Turdiyeva) qo'shiqlari keltirilgan. Hamda "Quvlashmachoq" sanama o'yini ham bolalar rasmlari orqali o'ynayotganini yoritilib ketilgan. Ertakdan "Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan 1 ta audio ertagi mavjud. Topishmoqlardan 8 ta berilgan va qanday qilib topishmoqni oson topish yo'llarini o'rgatgan.

Topishmoqlar o'quvchilar yosh psixologik xususiyatlariaga mos holda tuziladi. Topishmoqlarning javobini to'g'ri topish uchun misralarning yashiringan ma'noni topish kerak bo'ladi. Topishmoqlar o'quvchilarni topqirlikka zukkolikka o'ylanishga va izlanishga o'rgatadi. Demak.

Katta kichik besh o'rtoq.

Uyushsa, bo'lar to'qmoq.

Ushbu topishmoqning javobini topish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

1. Kalit so'z va birikmalarni ajratib olamiz: besh o'rtoq, uyushsa, bo'lar to'qmoq.

2. Kalit so'z va birikmalarining ma'nolarini aniqlaymiz: besh o'rtoq- 5 ta ahil do'st doimo birga va bir -biriga yordam beruvchi. Uyushsa- bu hamma ishni birga qilish . Bo'lar to'qmoq- katta kuchga aylanish deganidir. Demak topishmoqni javobini topdik bu "Barmoqlar" ekan

Topishmoqlar:

- 1) Bir aybi bor, turib semirar. (Xamir)
- 2) To'r ustida yashaydi, Pashshani o'rab tashlaydi. (O'rgimchak)
- 3) "Teg" desam tegmaydi, "Tegma" desam tegadi. (lab)
- 4) Bu jonivor beozor,
Usti nuqul tikanak.
Koptok deysiz bemalol,
Bo'lib olsa g'ujanak. (tipratikon)
- 5) Yo'l ko'tarar hammaga,
Hamisha uch hil chiroq.
E'tiborsiz bo'lsa kim,
Deydi: "Ko'zlarimga boq" (svetafor).
- 6) Sandiq to'la oq sadaf,
Turishadi tortib saf.
O'ttiz ikki o'rtoq,
Yashaydi ahil-inoq (32 ta tish.)
- 7) Dum-dumaloq,
Yum-yumaloq.
Ichi to'la havo-yey,
Tepsam, otar shataloq. (Koptok)
- 8) Katta kichik besh o'rtoq,
Uyushsa, bo'lar to'qmoq.(Barmoqlar)

Ona tili va o'qish savodxonligi (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.) 2-sinf darslik. Bu darslikning 1- qismida xalq og'zaki ijodidan na'munalaridan audio ertak 1 ta " Mehnatkash choynak", milliy cholg'u asboblarimiz nay, nogora va 21 ta maqol berilgan.

Maqollar :

1. kuch birlikda.
2. Vatanga falokat-o'zingga halokat.
3. Suvni bersang elga,- Yosharasani ming yilga.
4. Bulbulga bog' yaxshi- Kakklikka tog'.
5. O'zga yurtda shoh bo'lguncha- o'z yurtingda gado bo'l.
6. Ilmsiz bir yashar-ilqli ming yashar.
7. Ilqli uy-charog'on.
- Ilmsiz uy-zimiston.
8. Bilagi zo'r bir yiqrar.
- Bilimi zo'r-mingni.

9. Harakatda-barokat.
10. O'zga yurtda shoh bo'lguncha.
10. O'z yurtingda gado bo'l.
11. Arslon izidan qaytmas, Yigit-so'zidan.
12. Tulkining hiylasi ko'p, yaxshisi-qochmoq.
13. Bo'rining o'zi to'ymasa ham ko'zi to'ymas.
14. Echki yugurib kiyik bo'lolmas.

Ona tili va o'qish savodxonligi (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.) 2-sinf darsligining 2- qismida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan ko'proq berilgan. Ertak 4 ta 2 tasi esa audio ertak hisoblanadi. "Donishmand soat" zamonaviy ertak, "Yolg'iz qolgan yo'l belgisi" ertagi. Audio ertaklar esa: "Yaxshilik ortidan yaxshilik keladi" va "Dangasa harflar" shular jumlasidandir. Maqol 13 ta. Topishmoq 16 ta. 3 ta bolalar qo'shiqlari "jo'jalarim", "Ona va qiz aytishuv", 1 tasi audio qo'shiq " Kulcha" qo'shig'i berilgan. 1 ta xalq milliy o'yinidan "Kim oladi shuginani" hamda xalq qo'shig'idan 1 ta "Alla" (Gulbahor Erqulova) berilgan. Bizning milliy hunarmandchilgimizning na'munalaridan ham misollar keltirilgan. Masalan: Changqovuz, qalqon, zardo'zlik, minora. Ko'rinish turibdiki, xalq og'zaki ijodi na'munalaridan ona tili va o'qish savodxonligi darsligida 1- qismidan 2 - qismida kengroq yoritilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi 2-qismidagi xalq og'zaki ijodi na'munalaridan misollar keltiramiz:

Bolalar qo'shiqlaridan:

Chip-chip jo'jalarim,
Chip-chip-chip jo'jalarim.
Mening jajji jo'jalarim,
Turli-tuman jo'jalarim.

Keling, sizga suv beraman,
Keling, sizga don beraman.
Hoy mening jo'jalarim,
Hoy mening jo'jalarim.

Alla:

Alla aytay, jonim bolam, quloq solgin, alla.
Shirin allam tinglab asta, uxbab qolgin, alla.
Yuzlaringga tomgan suvgaga hayron bo'lma, alla-yo,
Baxtimga sen katta bo'lgin, ko'rash ko'zim, alla.

Ona tili va o'qish savodxonligi (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova. Toshkent-2022) 3-sinf darsligida. 1-qismida asosan 6 ta ertaklar berilgan: "Tulki bilan Laylak", "Inson nima uchun hammadan kuchli", "Ertak" deb sarlavhasi yo'q ertak, "Vatan" (Xudoyberdi To'xtaboyev), "Ikki irmoq" (Habib Po'latov). Audio ertak: "Dangasa ertagi". Maqol 7 ta.

Ona tili va o'qish savodxonligi (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova. Toshkent-2022) 3-sinf darsligida. 2-qismida esa "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" degan bob bor. Ertak asosan 5 ta "Ertak" (Tojik xalq ertagi), "Qarg'avoy" (o'zbek xalq ertagi), "Tulki va sher" (Tojik xalq ertagi) "O'g'rining qismati" (Dilshod Rajab) 1 tasi audio ertak multfilm "Oltin Tarvuz".

Topishmoq 9 ta, 6 tasini Zikirillo Ne'matning tuzgan topishmoqdir. 2 ta audio qo'shiq "Matmusaning qo'shig'i", "Matmusaning dutori". Milliy o'zbek hunarmandchilimizdan kulolchilik audio matni berilgan. O'zbek xalq milliy dorbozlik san'ati "Dorbozlik san'ati YUNESKO ro'yxatida" haqida matn mavjud. Ushbu matn ko'rib chiqamiz.

"O'zbek milliy xalq o'yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e'zozlab kelinadi. Masalan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan dorbozlik san'ati ana shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bundan taxminan ikki yarim ming yillar muqaddam Sharqdan vujudga kelgan dorbozlik bugungi kunda sirk san'atining ajralmas qismiga aylangan. Dorbozlik o'yinlar avval ochiq maydonlarda, 13-asrdan boshlab esa maxsus sirk arenalaridan ham namoyish etiladigan bo'lди. O'zbekiston dor o'yini qadim tarixga ega. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida ham bunday ajoyib namoyishlar ko'rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O'zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva va Asakada taraqqiy topgan. Bugun ana shu dorbozlik san'ati YUNESKOning nomoddiy meroslari ro'yxatiga kiritilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan bu san'atning yanada ommalashishida qo'l keladi. Bu ro'yxatga kiritilgan san'at turlari yo'qolib ketishidan saqlanadi." 1.

Ko'rib turibmizki hozirgi yangi boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida milliy anana, san'at va madaniyat, urf-odat, xalq og'zaki ijodi na'munalarimiz hammasi mujassamdir va beqiyos tarzda yoritilib berilgan. Hatto audio matnlar orqali ham bayon etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish va ona tili va o'qish savodxonligi kitoblarida berilan xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'qiganda va tinglab ko'rganda. Uning zaminida vatanga muhabbat, ota-onasiyu qarindoshlariga mehr- oqibat, hurmat, sadoqat, vafo, ishonch, do'stlik sabr, va ko'plab ijobiy hislatlarni egallab, ongiga sindirib, talim va tarbiyali har tomonlama yetuk shaxs bo'lib ulg'ayadilar. Bizlar mard, jasur, alplar va buyuklarni avlodlar ekanligidan faxrlanib, O'zbekistonni bayrog'ini doimo yuksaklarda ko'targuvchi va sadoqatli, haqiqiy o'g'lon va qizlar bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ona tili o'qitish metodikasi. Karima Qosimova, Safo M atchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev.
2. Bolalar adabiyoti va folklor Mamasoli Jumaboyev.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 darslik 1-2 qism . Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent- 2021.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf darslik 1-2- qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.
5. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf darslik 1-2-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova. Toshkent-2022.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)

6. O'qish kitobi 1-sinf darslik. T. G'afforova, E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva Toshkent-2017.
7. O'qish kitobi 2-sinf darslik. T. G'afforova, SH. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova Toshkent-2018.
8. O'qish kitobi 3-sinf darslik. M.Umarova, X.Xamraqulova, R.Tojiboyeva Toshkent-2019.
9. O'qish kitobi 4-sinf darslik. S. Matchinov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov Toshkent- 2020.